

**OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA JAMOAT TASHKILOTLARINING O'RNI
("QALQON" JAMOATCHILIK GURUHLARI FAOLIYATI MISOLIDA)**

Qudratov Anvarmirzo Murodillaevich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi

direktorining iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo'yicha o'rinbosar

isiyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi kunda jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosiqichda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashga yangicha talablarni ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassislariga qo'yilayotgan kasbiy vazifalarni jahon standartlariga moslashtirish, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'zlashtirish eng ustuvor vazifalar sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasa'arida ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda talaba-yoshlarning millat va xalq oldidagi mas'uliyatini, vatanparvarligini tarbiyalash, ularda fidoyilik, sadoqatlilik va daxldorlik tuyg'ularini mustahkamlash masalalari ham ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Zero, zamonaviy sharoitda yoshlardagi ma'naviy yetuklik, ijtimoiy faollik va faol fuqarolik pozitsiyasi jamiyat taraqqiyoti va mamlakat kelajagi uchun hal qiluvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Yangi O'zbekiston sharoitida talaba yoshlar faolligi xuquqiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda yangicha qarashlar, tashabbuslar bilan chiqishi bilan o'lchanadi. Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan «Inson qadri uchun» tamoyili mamlakatimizda fuqarolarning, xususan, yoshlarning manfaatlarini inobatga olgan holda siyosat yuritilishi kerakligini ko'rsatib beradi[2].

Yoshlar jamiyatda eng serquvvat va ilg'or guruh sifatida innovatsion fikrlash, zamonaviy texnologiyalarni ilmiy asosda o'zlashtirish va siyosiy jarayonlarda konstruktiv fikr bildirish qobiliyatiga ega. Shu bois, ularning faol holda siyosiy jarayonlarga qo'shilishi umumiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda yangi islohotlar,

ochiqlik siyosati va g'oyaviy rang-baranglik sharoitida talaba yoshlar jamiyat hayotida bevosita ishtirok etishi uchun huquqiy zamin yaratilgan. Masalan, «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida» gi qonunlar, shuningdek, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar talaba yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda [3]. Biroq imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, iqtidor va tashabbuslarini to'g'ri yo'naltirish jarayonlarida aniq tizimiy yondashuv zarur. Ana shunday tizimiy yondashuvni mustahkamlashda, shubhasiz, jamoat tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mustaqil komil inson qilib shakllantirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari qoshida "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini tashkil etilgan.

Bugungi kunda «Qalqon» jamoatchilik guruhlarining soni va salohiyati ortib borayotgani quvonarli holdir. Chunki bu jamoalar tarkibida yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati, vatanparvarlik tuyg'usi, huquqiy madaniyati va fuqarolik pozitsiyasi izchil ravishda yuksalib bormoqda. Ularning sa'y-harakatlari nafaqat tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta'minlashga, balki sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunga kelib «Qalqon» jamoatchilik guruhlarini tarkibida 6 070 nafar faol a'zo mavjud bo'lib Shulardan 3 855 nafari o'g'il bolalar, 810 nafari qizlardir. Shuningdek, guruhlar safiga 1 405 nafar professor-o'qituvchi, tyutor va boshqa mas'ul xodimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu ko'rsatkich «Qalqon» jamoatchilik guruhlarini tarkibi kengayib, nafaqat yoshlar, balki tajribali pedagog va mutaxassislarni ham qamrab olgan holda tobora barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu – yoshlarimizning jamiyatda faollik bilan ishtirok etish istagini ko'rsatuvchi katta kuchdir. Qalqon jamatchilik guruhlarini o'z faoliyati davomida 2025 yilning oktyabr oyiga qadar Respublika bo'ylab 65 050 ta profilaktik tadbir o'tkazildi.

Ushbu tadbirlarda 115 781 nafar yoshlar faol qatnashdi. Bu raqamlar "Qalqon" jamoalarining kuchli tashkilotchiligi va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur davr mobaynida 18 640 marotaba maxsus reytd tadbirlari

o‘tkazilib, ular jarayonida 11 750 nafar yoshlarga ogohlantirish va tushuntirish ishlari olib borildi. Bu esa jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish barobarida yoshlar ongida intizom, mas’uliyat va huquqiy madaniyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

“Qalqon” guruhlarining faoliyati «Yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi hukumat qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyruqlari va tasdiqlangan nizomlar asosida tashkil etilgan. Qalqon» jamoatchilik guruhlarining bugungi kunda Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, oliy ta’lim muassasalari hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan yaqin hamkorlikda samarali faoliyat olib bormoqda. Ushbu hamkorlik doirasida qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan rejali ishlar natijasida talabalarning ijtimoiy faolligi, huquqiy ongi va madaniyati, shuningdek, fuqarolik pozitsiyasi izchil ravishda yuksalmoqda.

«Qalqon» jamoatchilik guruhlarining bu kabi tashabbuslari yoshlarni vatanparvarlik, mas’uliyat va jamoaga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. «Qalqon» jamoatchilik guruhlarini – bu nafaqat tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta’minlash, balki yoshlarning o‘z ijtimoiy mas’uliyatini anglab yetishi, sog‘lom turmush tarziga amal qilishi hamda Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish maktabidir. Yoshlarga qaratilayotgan yuksak e’tibor va yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, ularni yurt ravnaqiga yo‘naltirish barchamizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

«Qalqon» jamoatchilik guruhi a’zolari 2025 yil davomida o‘tkazilgan yirik tadbir va festivallarda tashkiliy ishlarga faol jalb etilib, talabalar xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash hamda turli xil kelib chiqishi mumkin bo‘lgan noxush holatlarni oldini olishda munosib yordam ko‘rsatdi. Shuningdek, guruh tashabbusi bilan sport o‘yinlari va sog‘lomlashtirish musobaqalari muntazam ravishda tashkil etilib kelinmoqda.

Oliy ta’lim tashkilotlarida o‘tkazilayotgan tadbirlar doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari hamda OTMlarning rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borilmoqda. Bu

esa «Qalqon» jamoatchilik guruhlarining faoliyati nafaqat tartib-intizom, balki yoshlar tarbiyasi, sport va ma'naviyat sohalarida ham keng qamrovli ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Shavkat. Yangi O'zbekiston strategiyasi: islohotlar va rivojlanish. – Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2022. – 23–24-betlar.
2. Qodirov Alisher. Talabalar faolligini oshirish mexanizmlari. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2021. – 56-bet.
3. “Yoshlarga oid davlat siësatining asoslari to'g'risida” Qonun. – Toshkent: 2020. – 15-bet.
4. Nazarov Komil. Institutlar nazariyasi: jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. – Toshkent: «Iqtisodiyot» nashriyoti, 2019. – 45–47-betlar.
5. Bekzodova Diyora. Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida klublar faoliyati. – Toshkent: «Universitet» nashriyoti, 2021. – 87–88-betlar.
6. Karimov Farhod. Siyosiy partiyalar: yoshlar qanotlari va ularning jamiyatdagi roli. – Toshkent: «Adolat» nashriyoti, 2022. – 33-bet.
7. Hasanov Komiljon. Iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitali. – Toshkent: «Iqtisodiyot» nashriyoti, 2020. – 112–114-betlar.